

## BILISH FALSAFASI VA UNING AHAMIYATI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til  
va adabiyot yo‘nalishi XT3-24 guruh talabasi  
Uktamova Dinora Yoqub qizi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bilish falsafasi (gneseologiya) tushunchasi, bilish bosqichlari, bilishning obyekti va subyekti, bilish nazariyalari so‘ngra bilishning ilmiy va amaliy jihatlari yoritiladi. Shu bilan birga, bilish jarayonida haqiqatga erishish muammosi, skeptitsizm, empirizm va ratsionalizm kabi yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqola bilishning falsafiy asoslarini tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, inson tafakkurining cheklovleri va imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Bilish falsafasi, bilish bosqichlari, gnoseologiya, bilish jarayoni, haqiqat, skeptitsizm, empirizm, ratsionalizm, subyekt, obyekt.

**Abstract:** This philosophy covers the concept of philosophy of knowledge (gnoseology), stages of knowledge, object and subject of knowledge, theories of knowledge, and then scientific and practical aspects of knowledge. At the same time, the problem of achieving truth in the process of knowledge, such approaches as skepticism, empiricism and rationalism are considered. The article is aimed at explaining the philosophical foundations of knowledge, and special attention is paid to studying the limitations and possibilities of human thinking.

**Keywords.** Philosophy of knowledge, stages of knowledge, gnoseology, process of knowledge, truth, skepticism, empiricism, rationalism, subject, object

**Аннотация.** В этой философии освещаются понятие философии познания (гносеология), стадии познания, объект и предмет познания, теории познания, затем научные и практические аспекты познания. При этом рассматриваются такие подходы, как проблема достижения истины в процессе познания, скептицизм, эмпиризм и рационализм. Статья направлена на объяснение философских основ познания, при этом особое внимание уделено изучению ограничений и возможностей человеческого мышления.

**Ключевые слова.** Философия познания, стадии познания, гносеология, процесс познания, истина, скептицизм, эмпиризм, рационализм, субъект, объект.

**Kirish.** Bilish falsafasi (gnoseologiya) inson tafakkurining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda bilish jarayoni, bilishning mohiyati va chegaralari, haqiqatga erishish muammolari tahlil qilinadi. Inson azaldan borliqni anglash, tabiat va jamiyat sirlarini ochish, haqiqatni bilish istagida bo‘lib kelgan. Bilish jarayoni inson tafakkurining murakkab mexanizmlariga asoslanadi va unda subyekt hamda obyekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar muhim o‘rin tutadi.

Bilishning falsafiy tahlili bilish bosqichlari, bilishning ilmiy va amaliy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, turli nazariyalar asosida o'r ganiladi. Skeptitsizm, empirizm va ratsionalizm kabi yondashuvlar bilish jarayonini tushuntirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, haqiqatga erishish muammosi bilish falsafasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Inson tafakkurining cheklovleri va imkoniyatlarini aniqlash esa bilish jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mazkur maqolada bilish falsafasining asosiy jihatlari, bilish nazariyalari va bilish jarayonining murakkab mexanizmlari keng tahlil qilinadi.

Bilish falsafasi (gnoseologiya) haqida tushuncha.

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosи-«bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, Shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Bilish falsafasi (gnoseologiya)-insonning borliqni anglash jarayonini, bilishning tabiatini, imkoniyatlari va chegaralarini o'r ganadigan falsafa sohasi hisoblanadi. Inson azaldan o'zini qurshab turgan olamni tushunishga, undagi qonuniyatlarni anglashga intilib kelgan. Shu sababli bilish falsafasi inson tafakkurining asosiy masalalaridan biri bo'lib, "Inson haqiqatni bilishi mumkinmi?", "Bilish jarayonida asosiy omillar nima?" kabi savollarga javob berishga harakat qiladi. Bilish jarayonida subyekt (biluvchi) va obyekt (bilish obyekti) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Subyektning bilish imkoniyatlari va usullari turlicha bo'lib, bilish jarayoni hissiy idrok, aql yuritish va tajriba orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bilish nazariyalari turlicha talqin qilinadi. Masalan, empirizm bilishda asosiy rolni tajriba va kuzatishga bersa, ratsionalizm bilish jarayonida aql va tafakkur yetakchi o'rin tutadi. Skeptitsizm esa haqiqatni bilish mumkinligiga shubha bilan qaraydi.

Bilish falsafasi inson tafakkurining cheklovleri va imkoniyatlarini tahlil qilish bilan birga, haqiqatni bilish yo'lidagi muammolarni hal qilishga urinadi. Bu soha nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham inson hayoti va ilm-fan taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bilish bosqichlari ikkiga bo'linadi. Bular: Hissiy bilish (jonli mushohada) Aqliy (mantiqiy) bilish-narsa va hodisalar mohiyati, aloqa munosabatlarini bilish.

Hissiy bilish-narsa, voqeа-hodisalarning inson ongida bevosita aks etish jarayoni.

Hissiy bilish bilish jarayonining muhim qismi bo'lib, u orqali inson tashqi dunyo bilan bog'lanadi va undan dastlabki ma'lumotlarni oladi. Shu bilan birga, hissiy bilish tafakkur uchun asos yaratadi va kelgusida bilishning mantiqiy bosqichiga o'tishga zamin hozirlaydi.

Hissiy bilish shakllari: Sezgi, idrok, tasavvur

Sezgi. Sezgi-bilish jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, insonning sezgi organlari orqali tashqi olamdagи narsalar va hodisalar haqida ma’lumot olish jarayonidir. Inson tashqi dunyoni ko‘z (ko‘rish), qulqoq (eshitish), burun (hid bilish), til (tatib ko‘rish) va teri (his qilish) orqali anglaydi. Sezgi natijasida inson atrof-muhit haqidagi dastlabki ma’lumotlarni qabul qiladi va ulardan keyingi bilish jarayoni uchun asos yaratadi. Masalan: inson quyosh nurlarining issiqligini terisi orqali his qilishi, gulning hidi yoki qog‘ozning silliqligini bilishi sezgi orqali amalga oshadi.

Idrok. Idrok-inson ongida sezgi organlarimizga bevosita ta’sir etayotgan narsa va hodisalarni tartibga solinib, yaxlit, bir butun holda aks ettirilishi. Idrok nafaqat tashqi dunyo haqida, balki vaqt, makon va harakat kabi tushunchalarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, soatning yurishini ko‘rish va eshitish orqali inson vaqt o‘tishini anglaydi. Idrok jarayoni ko‘proq ongning faol ishtirokida sodir bo‘ladi, chunki inson oldingi tajriba va bilimlariga asoslanib idrokni shakllantiradi.

Tasavvur. Tasavvur-oldin idrok qilingan narsalar va hodisalarning ongda qayta gavdalanishi jarayonidir. Inson ilgari ko‘rgan, eshitgan yoki his qilgan narsalarini tasavvur qilish orqali ongida qayta jonlantiradi. Masalan: Kitob o‘qiganda undagi qahramonlarning qiyofasi, ularning kiyimlari va voqealar sodir bo‘layotgan joyni ko‘z oldiga keltirish.

Ikkinci bosqichlardan biri bu-aqliy (mantiqiy) bilish. Aqliy bilishning 3 xil shakli mavjud;

Tushuncha. Tushuncha - aqliy bilishning shunday shakli bo‘lib unda predmet va hodisalarning eng umumiylar belgilari va xossalarni aks ettiriladi. Tushuncha orqali inson narsalar va hodisalarning mohiyatini anglaydi. Masalan: shahar deganda biz ko‘plab binolar bor, aholi ko‘p va barcha qulayliklarga ega bo‘lgan hududni tushunamiz.

Hukm ( mushohada). Hukm - bu biror narsa yoki hodisa haqida tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi fikr bildirish jarayonidir. Hukm mantiqiy fikrlash natijasida yuzaga keladi va u haqiqat yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Masalan, "Quyosh sharqdan chiqadi" degan fikr tasdiqlovchi hukm bo‘ladi, chunki bu haqiqatga asoslangan. "Qor qora rangda" degan fikr esa inkor etuvchi va yolg‘on hukm hisoblanadi, chunki qor oq rangda bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa — bir nechta hukmga asoslanib, yangi fikr hosil qilish jarayonidir. Xulosa chiqarishda inson o‘zidagi mavjud bilimlar va mantiqiy bog‘liqliklarga asoslanadi. Xulosa chiqarish tafakkurning mantiqiy natijasi bo‘lib, inson o‘z bilimlariga tayanib yangi fikr hosil qiladi.

Bilishning ilmiy va amaliy jihatlari.

Ilmiy bilish. Ilmiy bilish umumiylar bilishning quyi darajasi. Ilmiy bilish — voqelikni chuqur, tizimli va asosli tarzda tushunishga qaratilgan bilish jarayonidir. Ilmiy bilish kuzatish, tajriba, tahlil va umumlashtirish asosida amalga oshadi.

Amaliy bilish. Ilmiy bilishning yuqori darajasi. Narsalar mohiyatini tushuntiradi. Amaliy bilish — insonning voqelik bilan bevosita aloqasi natijasida hosil bo‘lgan, kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bilish shaklidir. Amaliy bilishda inson o‘zi o‘rgangan bilimlarni hayotda qo‘llaydi, yangi vosita va usullarni ishlab chiqadi.

Skeptitsizm, Empirizm va Ratsionalizm yondashuvlari. Bilish jarayonida insonning voqelikni tushunishiga turli falsafiy yondashuvlar mavjud. Skeptitsizm, empirizm va ratsionalizm ana shunday asosiy yondashuvlar bo‘lib, ular inson bilimining manbai, ishonchliligi va chegaralarini tushuntirishga harakat qiladi.

Skeptitsizm. Skeptitsizm-bilish jarayonida haqiqatni to‘liq bilish mumkin emas degan qarash. Skeptiklar inson bilimlari cheklangan, voqelikni to‘liq tushunish va haqiqatni bilish imkonsiz deb hisoblaydi. Ular har qanday bilimga nisbatan shubha bilan qaraydi va haqiqatni mutlaq qabul qilishni inkor etadi.

Empirizm. Empirizm-bilimning asosiy manbai insonning tajribasi va sezgilar deb hisoblaydigan yondashuv. Empiriklar bilimni bevosita kuzatish, tajriba va hissiy idrok orqali hosil qilish mumkin deb biladi. Ularning fikricha, inson faqat ko‘rgan, eshitgan, his qilgan narsalariga asoslanib bilim hosil qiladi.

Ratsionalizm. Ratsionalizm-bilimning asosiy manbai inson aqli va tafakkuri deb hisoblaydigan yondashuv. Ratsionalistlar inson haqiqatni sezgi va tajriba orqali emas, balki tafakkur, mantiq va mulohaza orqali biladi deb hisoblaydi. Ularning fikricha, bilish jarayonida asosiy rolni tafakkur o‘ynaydi.

Xulosa. Bilish falsafasi (gnoseologiya) inson tafakkurining mohiyatini, bilimning shakllanish jarayoni va haqiqatga erishish imkoniyatlarini o‘rganadi. Bilish jarayoni hissiy va aqliy bilish bosqichlaridan o‘tib, inson ongida voqelikning aks etishini ta’minlaydi. Bilish jarayonida subyekt va obyekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar asosida inson haqiqatni anglaydi.

Bilish nazariyalari haqiqatga erishish jarayonini tushuntiradi. Skeptitsizm bilimga nisbatan shubha bilan qarashni ta’kidlaydi, empirizm bilimning asosida tajriba va sezgilar yotadi deb hisoblaydi, ratsionalizm esa bilimning asosini tafakkur va mantiq bilan bog‘laydi. Bilishning ilmiy jihatni nazariy bilimlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, amaliy bilish esa ushbu bilimlarni hayotda qo‘llash orqali inson faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, bilish falsafasi inson tafakkurining asosiy mohiyatini tushunish va haqiqatni anglash imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
2. Karimov A. Gnoseologiya asoslari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.

3. Rasulov U. Falsafiy yondashuvlar: Skeptitsizm, Empirizm va Ratsionalizm. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2017.
4. Ro‘ziyev F. Ilmiy bilish va uning amaliy tadbipi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
5. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. -Toshkent, Noshir, 2016
6. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. -T.: Universitet, 2005.
7. Nazarov M. Bilish jarayonida tafakkur va idrok. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017.
8. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.
9. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
10. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.
11. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.
12. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o’g’li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘.' *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..
13. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
14. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
15. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.